: innovatsion usullarni o'quv jarayoniga joriy etishda ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Xulosa va tavsiyalar. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oldigan, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak.

Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadga yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz faoldir. Zero, pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchilar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Dars jarayonida innovatsion texnologik vositalardan foydalanish o'quvchilarning darsga jalb qilinishi va mavzuni tez va oson o'rganilishi oson bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent.O'zbekiston nashriyoti. . 2023-yil.412 bet
2. Xaitov X.A. "Boshlang'ich sinfda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Buxoro. Durdona nashriyoti 2024-yil 214 bet (4-6 betlar)
3. Xaitov X.A. Zamonaviy o'zbek adabiyoti badiiy taraqqiyotida xalq kulgisining o'rni. Monografiya. Buxoro. Durdona nashriyoti 2024-yil 267 bet
4. Muxtorqulova R. Z. Abdurazoqov F. A " Badiiy asar tahlilida pedagogic texnologiyalardan foydalanish". International Journal of Resently scientific Researcher's Theory" jurnali 2021 yil 91 b
5. Ruzaliyeva Z. Z. Raximova X.R. Badiiy asarlar matni ustida ishlashda pedagogic texnologiyalardan foydalanish yo'llari. "Научный импульс" международный научный журнал №5 (1000) часть 1 2023 г. 903 с



**STUDY ON THE COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF
STUDENTS LEARNING KOREAN AS A SECOND FOREIGN
LANGUAGE (based on the curriculum of Korean as a foreign language)**

Saidova Mokhinur Murodovna

Basic doctoral student of
Bukhara state university

Abstract. This article examines the communicative competencies of students learning Korean as a second foreign language, adopted by the Ministry of Education of Republic of Korea. In the curriculum, communication skills (oral production) are included in the category of production activities, which at the same time has a subcategory of writing production. The article examines in detail all subcategories of production category and gives them a definition.

Key words: competency, oral production, written production, the curriculum, Korean as second foreign language, language activities.


This article examines the communicative (oral) competencies of students learning Korean as a second foreign language, adopted by the Ministry of Education of Republic of Korea. In the curriculum, communication skills (oral production) are included in the category of production activities, which at the same time has a subcategory of writing production. The article examines in detail all subcategories of production category and gives them a definition.

Generally, the content system of language activities was organized into two categories, communicative language activities and communicative language strategies, as upper categories. Among these, four categories, including *reception, production, mediation, and interaction*, were set and organized as subcategories of communicative language activities. This article examines the production category, which combines speaking and writing.

Production is a category that has replaced the traditional term *expression*. The production category described details with a focus on the process of creating and outputting language to convey opinions, intentions, and emotions to the other party. Production skills are acquired through learning and experience, and production strategies are used to refine production. In production activities, fluency and

accuracy of production are emphasized, especially fixed formality must be maintained when producing in formal situations or specific genres.

Based on the curriculum of Korean as a foreign language adopted by the Ministry of Education of Republic of Korea [1, 25] in 2021, the production category is divided into production activities and production strategies as shown in [Figure 1], and the entire production category is composed of a total of 12 sub-areas as follows.



Source: Council of Europe (2020, p.61, reconstructed)

[Figure 1] Structure of production categories

The production category presented competency statements that specifically considered three aspects: topic, discourse type, and background knowledge. Since the Uzbek education system for a second foreign language considers the basic level that need to be mastered, this article will also consider all the competencies of students at levels A1 and A2.



Overall spoken production	
A2+	Same as A2
A2	Can talk about very close people or about daily life. (e.g. classmates, weekend family trips, school life, academic-related areas, etc.) Can speak in simple phrases and sentences.
A1	Can talk about very close people and familiar places. Can only speak with a few simple phrases and expressions. (Example: Greeting expressions such as ‘Hello?’ ‘Thank you.’) Can speak key vocabulary related to school subjects. (e.g. math, history/geography, science vocabulary)
Pre A1	Can tell basic information about him/herself. (e.g. name, address, family, nationality) Able to speak only with basic vocabulary, a few simple phrases, and typical expressions. (Example: ‘Hello?’, ‘Goodbye.’, ‘Hi.’, ‘Bye.’, ‘I’m sorry.’, etc.)

In the spoken language production category, an explanation of the overall spoken production category was provided so that one can understand the overall performance and production ability encompassing all subcategories. In this curriculum, oral production is roughly divided into sustained monologues, public announcements, and addressing audiences. Sustained monologues include describing experiences, giving information, logical argument (putting a case).

Now we will consider the competencies of students for each subcategory.

	Describing experience
A2+	<ul style="list-style-type: none">· Can briefly explain things and habits experienced in daily life or school life. (e.g. parties with friends, life outside of school, classroom situations)· Can talk about one’s plans.· Can explain special days. (e.g. how to celebrate Christmas)· Can explain school life. (e.g. school routine, school events, school rules)



	<ul style="list-style-type: none"> · Subject contents can be explained using subject-related terms. (e.g. math problems, science experiments) by referring to the textbook. · Can explain simple scientific experiment procedures. · Can briefly summarize the contents of a poem or story and express one's impressions of it.
A2	<ul style="list-style-type: none"> · Can explain one's educational background, occupation, and living conditions. (Example: educational background, means of transportation used to go to school from home) · Can describe family and friends. (e.g. parent's occupation, friend's appearance) · Can talk about what he/she did or did on weekends or holidays. · Can talk about what one's good at and what you are not good at in school. (Example: Sports one's good at, sports one's not good at)
A1	<ul style="list-style-type: none"> · Can tell basic information about him/herself. (e.g. name, hometown, school attended, work done) After preparing in advance, can talk about things related to his/her daily life. (e.g. likes and dislikes, things he/her often do with friends, family members) · Can express feelings using simple vocabulary along with gestures. (Example: '(Make a circle sign by putting thumb and index finger together) Okay, I understand.')
Pre A1	<ul style="list-style-type: none"> · After preparing in advance, can tell basic information about himself using typical expressions. (Example: Name ('저는○○예요./○이예요.'), age, country, address, phone number) · Can express your feelings using simple vocabulary along with gestures.

Describing experiences is the ability to tell stories or explain things, and it refers to the ability to describe oneself or familiar people, or to describe experiences and feelings about daily life and school life

In addition, since the curriculum of Korean as a foreign language adopted by the Ministry of Education of Republic of Korea views learners as social agents, the situations in which spoken language production takes place are concrete real-life



situations, that is, conversation situations where one speaks directly to the other party (e.g., providing information) and announcement or presentation situations where one speaks to a large number of people (e.g. : Presentation).

	Providing information	Giving a presentation
A2+	Same as A2	If prepare in advance, he or she can present on topics related to daily life. (e.g. opinions, plans, actions and reasons for doing so) After the presentation, he or she can answer questions from the audience.
A2	Can use vocabulary related to sequential expressions (e.g., turn right, just before, first, next) to describe how to get to a specific place.	If prepare in advance, he or she can present on a familiar topic. (e.g. country, athletic team) After the presentation, he or she may repeat explanations at the audience's request or provide standardized answers to audience questions.
A1	After preparing in advance, can briefly describe specific objects or pictures using basic vocabulary, phrases, and typical expressions. Can present basic information related to school classes. (e.g. classroom size, number of girls/boys, favorite subject)	If prepare in advance, he or she can read short sentences. (e.g. school introduction, short presentation assignment, etc.)
Pre A1	No ability statement	No ability statement



In this curriculum, considering elementary and middle school learners, in addition to the seven grades of Pre-A1, A1, A2, B1, B2, C1, and C2 set in the Common European Reference Standard (2020), the plus grade of A2+ , B1+, and B2+ are additionally set, but in the calculation category, the plus grade ability description may or may not be the same as A2, B1, or B2.

As can be seen from the following, the ability descriptions of A2 and A2+ are the same in making announcements (<oral production<production activities).

	Making a logical argument	Announcing
A2+	Can reveal one's preferences (likes, dislikes) and compare and present the reasons.	Same as A2
A2	If the listener waits, he or she can present his or her opinion.	After preparing in advance, can announce information about his/her daily life and school life briefly and simply so that the other person can understand. (e.g. class times, classroom location, etc.)
A1	No ability statement	No ability statement
Pre A1	No ability statement	No ability statement

Next, the written language production categories are explained as follows.

First, in the written production category, an explanation of the overall written production category was provided so that the overall written production ability encompassing all subcategories could be known. In this curriculum, written language production is divided into creative writing and academic writing (written reports and essays).

Creative writing is the ability to write various types of texts using personal and creative expression, more specifically about school classes, school life (school activities, relationships with friends), and cultural events (plays, movies, concerts).



It refers to the ability to write or express a critical review of a literary work in a detailed, structured text. For each level of creative writing skills, competency statements were used based on the complexity of discourse ranging from words to phrases, clauses, sentences, and texts. Because adolescent learners have relatively more difficulties with written language production activities than with oral language production activities, only grades from A1 to C1 were described.

REFERENCES

1. The curriculum of Korean as a foreign language (해외 초,중등학교 한국어교육과정)Ministry of Education of Republic of Korea, 2021
2. 김선정·이동은·공동관·민경모(2010). 해외 초·중등학교 한국어 표준교육과정 개발 연구. 교육과학기술부.
3. 김호정·강남욱·신필여(2021). 해외 초,중등학교 한국어 교육을 위한 외국어로서의 한국어 교육과정 현황 분석 및 개발 연구, 서울: 교육부 재외 교육지원센터·서울대학교 교육종합연구원.
4. Council of Europe(2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment–Companion volume. Council of Europe Publishing, Strasbourg. Available at <https://www.coe.int/lang-cefr>.
5. Saidova M.M., Comparative study on Uzbek second foreign languages curriculum and the curriculum of korean as a foreign language of South Korea. Interpretation and researches. Volume 2 issue 14 (36) | ISSN: 2181-4163, 63-72b
6. Saidova M.M., Koreys tilining jahon va O'zbekistonda ikkinchi xorijiy til sifatida ommalashuvi tendensiyalari. Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali volume 2, issue 7, 2024 | ISSN 2992-8869, 181-187 b
7. Saidova M.M. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'qitishda Koreya ta'lim dasturidan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024
8. Saidova M. Integrativ yondashuv asosida koreys tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. Talqin va tadqiqotlar, № 13(50), 2024



9. Saidova M. Важность обучения второму иностранному языку и современным профессиям, World of Scientific news in Science Journal, Vol2 Issue 6, 2024.

10. Saidova M. Ikkinchi xorijiy tilni o'qitishda ikki mamlakat madaniyatini o'rgatish prinsipining amaldagi tadbiri (koreys tili dasrligi misolida). Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, Vol 2 Issue 6, 2024.



Masofaviy va gibril ta'lim sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilining ta'siri

Shomurodov Sherah Shuhratovich

Annotatsiya

Gibril ta'lim - an'anaviy sinfdagi o'qitish va masofaviy ta'limni birlashtiruvchi o'qitish usuli bo'lib, so'nggi yillarda ta'lim tizimida keng tarqaldi. Bu yangi ta'lim shakli samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili muhim rol o'ynamoqda. Global Internet tizimining rivojlanishi jahon ta'lim tizimida evolyutsion takomillashtirishning yangi istiqbollarini ochib berdi. Bugungi kunda an'anaviy ta'lim uslublari Internet, elektron-kompyuter setlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o'qitish uslublari bilan to'ldirilmoqda. Internet texnologiyaga asoslangan teleo'qitish va masofaviy ta'lim bir qator yangi funksiyalarni bajarish bilan bir qatorda, o'zaro taqsimlangan hamkorlik prinsipi, integratsiya, xalqaro enternet tarmog'iga kirish kabi aniq prinsiplarni amalda qo'llashni talab etadi.

Kalit so'zlar.

Gibril, sun'iy intellekt, virtual, chatbot, telekommunikatsiya, integratsiya, hamkorlik prinsipi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tarmoq, masofaviy ta'lim, ma'sofaviy o'qitish, e-Learning.

Hozirgi davr insondan umrbod ta'lim olishni, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni taqoza etmoqdaki, albatta bu elektron-kompyuter tarmoqni rivojlantirish hamda enternet texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o'qitish tizimlarini yaratish mumkin. Adaptiv ta'lim platformalari o'quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos materiallarni taklif etadi. Bu gibril ta'limda sinfdagi va onlayn darslarni birlashtirib, har bir o'quvchining muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning ahamiyati va zaruriyati

Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda olib borilayotgan izchil siyosat natijasidagi rivojlanish ta'lim tizimida ham o'qitishning yangi shakllarni



joriy etishni taqoza etmoqda. Shu sababli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim tizimini yuqori sifat darajasida tashkil etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir mamlakatning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqeini, uning iqtisodiy o'sishda asosiy omili bo'lib borayotgan intellektual boyligi ta'minlamoqda. Bu borada mustaqillik yillarida mamlakatimizda qator tadbirlar amalga oshirildi, jumladan aholining intellektual salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan ekanligi hisobga olgan holda "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Jamiyat rivojining yangi shart-sharoitlari axborotlashgan jamiyat talablariga javob beruvchi zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanib mutaxassislar tayyorlashni vazifa qilib qo'yimoqda. Axborot texnologiyalarini hayotimizning turli jabhalariga keng va jadal kirib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratmoqda. "Elektron ta'lim", "Elektron hukumat", "Elektron boshqaruv", "Masofaviy ta'lim", "Ochiq ta'lim", "Axborotlashgan iqtisodiyot" kabi tushunchalar hayotimizga keng kirib keldi. Axborotlashgan jamiyatning tashkiliy-texnologik asosini global informatsion tarmoq -Internet tashkil etadi. Ana shunday texnologiyalardan biri masofaviy o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi kunda turli sohalarida masofali o'qitishga turlicha munosabat kuzatilmoqda. Masalan, u bugungi kunda korporativ sohada an'anaviy treninglarni almashtirishda va ta'lim sohasida alohida kurslarni o'rganishda eng ko'p foydalanilmoqda. Bundan tashqari, o'qitishning bu shakli kundan kunga moliyaviy va axborot texnologiyalari sohalarida, davlat xodimlarini qayta o'qitishda, tibbiyotda, notijorat sohada, sanoatda, savdo-sotiq va boshqa sohalarida mustahkam o'rin egallamoqda.

Sun'iy intellektga asoslangan avtomatik baholash tizimlari test va imtihonlarni tezkor va aniq baholash imkonini beradi. Bu tizimlar o'quvchilarning natijalarini tahlil qilib, ularga o'z xatolarini tushuntirib beradi. Bu nafaqat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga, balki o'qituvchilarning yukini kamaytirishga ham yordam beradi.

COVID-19 pandemiyasining butun dunyo bo'ylab tarqalishi va keskin karantin choralari tadbiriq etilishi barcha davlatlarda ta'lim tizimida masofaviy o'qitishni yo'lga qo'yilishini talab etdi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham ta'lim tizimining barcha sohalarida masofaviy o'qitish yo'lga qo'yildi. Karantin davrida o'rta ta'lim uchun televideniye orqali maxsus dasturlar asosida o'quv mashg'ulotlar tashkil etildi, oliy ta'limda esa Moodle, Zoom dasturiy tizimlari hamda konferensiya-aloqa orqali mashg'ulotlar hamda talabalar bilimi nazorati o'rnatildi. Oliy ta'limda



masofaviy o'qitishning pandemiya sababli tezkor kutilmaganda tashkil etilishi talabalarning hamda ko'pchilik professor-o'qituvchilarning masofaviy o'qishga tayyor emasligini ko'rsatdi. Ayniqsa, yoshi 60 dan o'tgan professor-o'qituvchilarning Moodle va Zoom dasturlarini tezkor o'rganib olishlari qiyin kechdi.

Masofaviy o'qitishda talabalar o'quv jarayonining eng faol ishtirokchisiga aylanadi va bunda Internet resurslar muhim rol o'ynaydi. Talabalar masofaviy o'qitish tizimida o'quv maqsadini aniq tushunib, anglab yetishlari zarur hamda har bir mavzu bo'yicha muammoning mazmunini tushunishlari va uning yechimiga mustaqil ilmiy-ijodiy yondoshishlari talab etiladi. Shuningdek, bunday o'qish tizimida talabaning o'quv qobiliyatiga ham talab o'zgaradi, talaba faqat aniq mavzuni, ya'ni o'qituvchi mashg'ulot vaqtida o'tgan materiallarnigina o'qishi, yozishi yoki amaliy hisoblashlarni amalga oshirishlari emas, balki enternet global tarmog'idagi millionlab o'quv resurslaridan zarurlarini ajrata bilishi, yig'ishi hamda ijodiy yondoshib o'zlashtirishi kerak bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, masofaviy o'qitish boshqa tizim, masofaviy ta'lim boshqa tizim. Masofaviy ta'lim hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllari bilan teng huquqda diplomi tan olinishi zarur bo'lgan ta'lim shaklidir.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonunining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlanagn) 16 moddasida "Masofaviy ta'lim o'quv rejaları va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi" –deb ko'rsatib o'tilgan.

Masofaviy ta'limda professor-o'qituvchilarning ham vazifalari biroz o'zgaradi, ulardan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kuchliroq o'zlashtirishlari, fan bo'yicha elektron resurslarni audio va video ma'ruzalar, multimedia slaydlar, mavzuga oid kinofilmlar va sun'iy intellekt asosidagi nazorat topshiriqlari bilan boyitishlari hamda har bir professor fan bo'yicha o'zining shaxsiy veb saytiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda respublikamizning birorta oliygohi aynan masofaviy ta'lim yoki masofaviy o'qitishga moslashgan pedagog kadrlar tayyorlashga tizimli tarzda yondashgani yo'q.



Ayrim xorijiy mamlakatlarda masofaviy o'qitish tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "E-learning" va "On-line teaching" mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash dasturi oxirgi yillarda yo'lga qo'yilgan.

Tabiiy ravishda savol tug'iladi. Xo'sh, masofaviy ta'lim o'qituvchisi kim?

Birinchi galda, masofaviy ta'lim o'qituvchisi masofaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim beruvchi o'qituvchidir. U masofaviy o'qitish texnologiyalari – Internet-texnologiya va Keys-texnologiyadan boshlab, barcha TV va radio eshittirish texnologiyalarida ham ish yuritishni biladigan o'qituvchidir.

➤ Masofaviy ta'lim o'qituvchining pedagog sifatida shakllanishida muhim omil bo'ladi va uning imkoniyatlarini amalga oshiradi. Mutaxassis uyda turib ishning asosiy qismini bajaradi, talaba va kasbdoshlar bilan zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali bog'lanadi. Bu usul telekompyuterning ayni vaqtda rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ommalashgan usuli hisoblanadi va quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ta'lim oluvchilarning turli guruhlari bilan ishlash imkonini beradi;
- maqbul ishlash rejimini tanlash mumkin bo'ladi vaqt, shartlar va texnik vositalarni ishlatish bo'yicha);
- ta'lim oluvchilar doirasini kengaytirish imkoniyati yaratiladi;
- ilmiy va pedagogik faoliyatni birgalikda olib borishga sharoit tug'iladi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishda birinchi galda uning quyidagi asosiy bazalarini yaratish talab etiladi: huquqiy, meyoriy, o'quv-uslubiy, moddiy-texnik va kadrlar ta'minoti. Respublikamizda masofaviy ta'limni tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Masofaviy ta'limning huquqiy va meyoriy asoslarini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari, jumladan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, Respublikamiz Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni, VMning "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan.

Masofaviy ta'limning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash to'g'risida 2011-2016 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilinib, dastur asosida amaliy ishlar olib borildi.

Masofaviy ta'limni tashkil etishdagi asosiy vazifalardan biri uning o'quv-uslubiy bazasini yaratishdan iboratdir. Chunki masofaviy ta'lim o'quvchisi asosan elektron adabiyotlar, virtual laboratoriyalar asosida mustaqil ishlaydi. Buning uchun mazkur o'quv yurtining o'quv-uslubiy bazasi yetarli darajada elektron resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. //Toshkent sh.,2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son.

2.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh., 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son

3. Abdukadirov A.A., Pardayev A. X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya /red. M. Sodikova. - T.: O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2009. - 145 b.

4. Raximov O.D., Chorshanbiyev Z.E., Raximov A.X. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida masofaviy ta'limni tashkil etish. Monografiya. // Qarshi, "Intellect" nashriyoti, 2021. -112b.

5.Андреев А. А. Введение в дистанционное обучение. Учебно-методическое пособие. — М.: ВУ, 1997 г.

6.Зайченко Т.П. Основы дистанционного обучения: Теоретико-практический базис: Учебное пособие. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2004. - 167 с.

7.Иванченко Д.А. Системный анализ дистанционного обучения: Монография. — М.: Изд-во "Союз", 2005. — 192 с.

8. Parpiyev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.



ODAM SAVDOSI QURBONI BO‘LGAN INSONLARNING PSIXOLOGIK O‘ZIGA HOSLIGI

**Urganch shahri bo‘yicha IIO FMB 3-sonli IIB boshlig‘i mayor
Raximov Muxammad Baxtiyarovich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam savdosi qurboni bo‘lgan insonlarning o‘ziga hos psixologik jihatlarining ilmiy nazariy hamda amaliy tavsifi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Odam savdosi, deviant, xavfli xulq-atvor, avanturizmga moyillik, travma, yolg‘izlik, psixologik jarohat.

Аннотация: В этой статье приводится как научное теоретическое, так и практическое описание конкретных психологических аспектов людей, ставших жертвами торговли людьми.

Ключевые слова: Торговля людьми, девиантное, рискованное поведение, склонность к авантюризму, травма, одиночество, психологическая травма.

Annatation: This article provides both a scientific theoretical and a practical description of the specific psychological aspects of people who have become victims of human trafficking.

Keywords: Human trafficking, deviant, risky behavior, adventurism, trauma, loneliness, psychological trauma.

Ma'lumki, inson xuquqlari va manfaatlarini ta'minlashning birinchi va ustuvor vazifalaridan biri bu inson hayotini aziz deb bilmoq va jamiyat a'zolarini bunday xurujlardan himoya qilmoq zarur. Mazkur vazifa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bulib qolmoqda. Inson xuquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilanganidek, hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas, qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi. Ana shunday qul savdosining zamonaviy ko'rinishlari bugungi kunda biroz o'zgargan shakllarda namoyon bo'lmokda. Ayniksa mazkur jinoyat boshka jinoyatlarning yanada keng yoyilishi uchun sharoit yaratib berish bilan birgalikda, odam savdosi jinoyatlari oqibatida ayrim jinoiy uyushmalar misli kuirilmagan darajada boylik orttirmoqdalar.

Bunugngi kunda hayotda sodir bo'layotgan turli jarayonlar inson psixikasiga tasir qilmasdan qolmaydi. Ayniqsa ohirgi yillarda odam savdosi jinoyatchiligidan jabr ko'rgan insonlarning ruhiyatida o'ziga hos tarzda o'zgarishi bir qancha ma'lumotlarda dalillanadi.

“Odam savdosi – insonni oldi-sotdining ob'yekti sifatida foydalanish va ekspluatatsiya qilish ko'rinishidagi global jinoyat. Jinsi, yoshi va kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs ushbu hudud va chegara bilmas jinoyat qurboniga aylanishi mumkin, Odam savdosiga qarshi dunyo miqyosida kurash olib borish 2005 yildan buyon AQSh hukumati AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)

orqali O‘zbekistonda odam savdosi to‘g‘risidagi xabardorlik darajasini oshirish va undan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish uchun 9.6 million dollardan ziyod miqdorda mablag‘ ajratdi”. O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlash maqsadida, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi hamda mahalliy sheriklar, jumladan Komissiya a‘zosi bo‘lgan “Istiqlol Avlodi” nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Yaqinda esa AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ko‘magida Jizzax shahrida migrantlar uchun mo‘ljallangan axborot-resurs markazi ishga tushirildi. Markazda odam savdosidan jabrlangan shaxslarni aniqlashga yordam berish bilan bir qatorda, mehnat migrantlari va ularning oila a‘zolariga maslahat xizmatlari ko‘rsatiladi va foydali ma‘lumotlar taqdim etiladi. Odam savdosidan jabrlangan shaxslar aniqlangandan so‘ng AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ularni vataniga xavfsiz tarzda qaytarish va jamiyatga qayta integratsiyalashishda ko‘maklashadi. Mamlakatga qaytgan migrantlar, shu jumladan, odam savdosidan jabrlangan shaxslarga psixologik xizmatlar, huquqiy maslahatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kasbiy ta‘lim olish imkoniyatlari taqdim etiladi. Rehabilitatsiya xizmatlaridan tashqari, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) odam savdosi jabrlanuvchisiga aylanib qolish xavfi ostida bo‘lgan guruhlariga kiruvchi shaxslarga ham yordam ko‘rsatadi. AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ning ‘Markaziy Osiyoda xavfsiz migratsiya’ loyihasi doirasida biz mehnat migrantlari va xavf ostidagi guruhlariga kiruvchi shaxslar orasida qonuniy ishga joylashish yo‘llari, shuningdek, xorijiy davlatlarda ularning huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi xabardorlik darajasini oshirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirib kelmoqda[1].

Odamlarning qul bo‘lishining asosiy sababi - qashshoqlik. Ko‘pincha, asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun mablag‘ etishmasligi, beqaror daromad, ish etishmasligi va oilani boqish imkoniyati yo‘qligi sababli, odam turli xil mehnat sharoitlariga, ba‘zan esa eng g‘ayriinsoniy sharoitlarga rozi bo‘lishga majbur bo‘ladi.

Bundan tashqari, xavf omillariga quyidagilar kiradi:

- ta‘limning etishmasligi (yoki past darajasi);
- deviant, xavfli xulq-atvor, avanturizmga moyillik;
- huquqiy savodxonlikning pastligi;
- oiladagi noqulay turmush sharoiti;
- oilaning yo‘qligi;
- aqliy va jismoniy anormalliklarning mavjudligi.

Zamonaviy jamiyatda noqonuniy migratsiya muammosi juda keskin. Ushbu turkum ko‘pincha qurbonlikka duchor bo‘ladi, chunki chet elda noqonuniy vaziyatga tushib qolgan odamlar odam savdosi bilan shug‘ullanadigan jinoiy jamoalarning ta‘siriga qarshi tura olmaydilar. Muhojirlarning hujjatlarini olib qo‘yishadi, bekorga, yegulik uchun ishlashga majburlanadi, kaltaklanadi, zo‘rlanadi, o‘ldiriladi.



Odam savdosining potentsial qurbonining ma'naviy-psixologik hususiyatlari va belgilariga quyidagilar kiradi.

- odam savdosi jabrdiydarining ruhiy tushkun turi, ya'ni o'zini saqlab qolish instinkti bostirilgan va bunday instinktdan butunlay mahrum bo'lgan shaxslar osonlik bilan zo'ravonlik va aldashga duchor bo'lishadi;

- jabrlanuvchining ochko'z turi. U odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar uchun oson o'ljadir, chunki foyda olishga bo'lgan haddan tashqari ishtiyoq aqlga, hayotiy tajribaga va ichki ovozga soya soladi;

- yolg'izlik va "yurak ezilgan" qurbonlar, chunki yolg'izlik insonning aqliy qobiliyatining zaiflashishiga olib keladi, odam savdogarlar uchun oson o'ljaga aylanadi;

Odam savdosi qurbonlarining aksariyati bir yoki bir nechta travmatik hodisalarni boshdan kechirgan va ushbu hodisalarning oqibatlarini yengishga yordam beradigan psixologik usullardan foydalanish lozim. Ushbu reaksiyalarni tushunish uchun birinchi navbatda travma nima ekanligini tushunish kerak.

Travma nima? Travmaning mohiyati shundaki, u jabrlanuvchida moslashishning psixologik va biologik mexanizmlarini bildiradi. Bu tashqi tahdidni yengish uchun ichki va tashqi resurslar yetarli bo'lmaganda sodir bo'ladi.

Odam savdosi qurbonlari boshdan kechiradigan travmatik oqibatlar ko'pincha murakkab, ko'p va uzoq vaqt davomida sodir bo'lishi mumkin. Ko'pgina odam savdosi qurbonlari uchun zo'ravonlik yoki boshqa travmatik hodisalar odam savdosi jarayoni boshlanishidan ancha oldin boshlanishi mumkin. Odam savdosi bilan bog'liq jarohatlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan, ammo ular kam. Hozirda Tadqiqot asosan jinsiy savdoga e'tibor qaratadi, lekin har doim ham qurbonlarning kelib chiqishini hisobga olmaydi. Bu bilan birga ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, ko'rib chiqilsa, bir qator tavsiyalar va xulosalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ichki ishlari mutaxassisi sifatida quyidagicha fikrlash mumkin.

Odam savdosining ikki qurboni bir-biriga o'xshamaydi va odam savdosining ta'siri har bir insonga turlicha ta'sir qiladi. Muayyan odam qanday munosabatda bo'lishi yoki qanday munosabatda bo'lishi kerakligini oldindan aytib bo'lmaydi. Har bir insonni individual deb hisoblash va uning xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Turli odamlar sizga boshqacha munosabatda bo'lishadi. Bu yerda boshqa shaxslarni odam savdosi qurboni bo'lishini kutmasligingiz kerak. Odamlar sizni qutqaruvchi sifatida ko'radi. Ba'zilar sizga shunday qarashlari mumkin, lekin ko'pchilik sizni istalmagan savollarni so'ragan odam sifatida ko'radi, bu esa allaqachon juda qiyin bo'lgan vaziyatni yanada og'irlashtirishi mumkin.

Agar jabrlanuvchi rolingiz yoki siz ishlayotgan tashkilot sababli dushmanlik yoki tajovuzkorlik bilan munosabatda bo'lsa, bu shaxsan sizga tegishli bo'lmisligi mumkin, Har bir jabrlanuvchi tergovga dushmanlik bilan munosabatda bo'lmaydi, lekin ko'pchilik buni qiladi. Yo'q buni o'z aybingiz yoki jabrlanuvchining aybi sifatida ko'rishingiz va dushmanlikning hech qanday ko'rinishini salbiy qabul

qilmasligingiz kerak. Agar siz o'zingizni shunday tutsangiz, jabrlanuvchi bilan kerakli tushunishga erisha olmasligingiz mumkin[2].

Agar siz javoblarni juda erta so'rashni va to'g'ridan-to'g'ri savollar berishni boshlasangiz, bu jabrlanuvchini begonalashtirishi mumkin. Agar siz jabrlanuvchining haqiqatiga ishonmasangiz, unga shubhali munosabatda bo'lsangiz, shubha bildirsangiz yoki ishonchsizlik alomatlarini ko'rsatsangiz, bu sizni kutilgan natijaga erishishingiz uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Qanday bo'lmasin, bu yondashuvdan qoching. Muvozanatli, uslubiy va bag'rikenglik bilan yondashing. nima bo'lishidan qat'iy nazar, haqiqatni ochib tashlashga shoshilmang. Siz hech qachon odam savdosi qurbonlari kabi uzoq muddatli zo'ravonlikni boshdan kechirgan odamlarni uchratmagan bo'lishingiz mumkin. Muloqot jarayonida jabrlanuvchining berayotgan ko'rsatmalariga bog'liq bo'lgan savollarni bergan holda undan o'zingiz istayotgan javobni olish uchun jabrlanuvchining ruxiy holatini o'rganib unga bosim bermaslik lozim. Agarda jabrlanuvchiga tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud jarayonlarida yo'naltiruvchi savollar berilsa, ayblanuvchiga nisbatan beradigan ko'rsatmalari o'zgarib ketishi mumkin. Shuningdek jabrlanuvchining temperamentini aniqlagandan keyin u bilan muloqatga kirishganda kerakli bo'lgan savollarga javob olish osonroq bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki jabrlanuvchi bilan suhbatda IIB hodimi agressiv kayfiyatdaligini jabrlanuvchiga bildirib qo'ymasligi u bilan suhbatda hushmomila bo'lsagina o'zi uchun tezkor qiziqish uyg'otuvchi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelgusida jabrlanuvchining IIB hodimlariga nisbatan bo'lgan ishonchini ortishiga va jabrlanuvchi sifatida olgan psixologik jarohatlarini yo'qolishiga olib keladi.

Odam savdosidan jabrlangan shaxslarni psixologiyasidagi o'zgarishlarni normal hayotga qaytarish maqsadida tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud tergov jarayonlarida va undan keyin uni normal hayotga moslashtirish maqsadida tibbiyot birlashmalari, shahar-tuman hokimligida mavjud bo'lgan hotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlar, Istiqbolli avlod NNT bilan kelishilgan holda jabrlanuvchiga moddiy, ma'naviy, psixologiy yordamlarni ko'rsatish, oromgohlarga yuborish, rehabilitatsiya markazlariga joylashtirish, mahalliy sayohatlarni tashqil qilib berish lozim. Shundagina odam savdosidan jabrlangan shaxslarning psixikasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni oldini olishga va unga qarshi kurashda, oldingi hayot tarziga qaytarishda ijobiy natijaga erishish mumkin bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. USAID yordamida odam savdosidan jabrlangan 35 nafar shaxs O‘zbekistonga qaytarildi. “Istiqlol Avlodi” NNT rahbari Nazifa Kamalova maqolasi.. 22.07.2023 yil. migrant.uz/
2. Posobie dlya specialistov v sfere ugolovnogo pravosudiya po borbe s trgovley lyudmi. ORGANIZATSIYA OB’EDINENNIX NATSIY Nyu-York, 2010 god. 18 list. <https://www.unodc.org/documents/congress/background->



**OUTLINE
VOLUME-1, ISSUE-2**

1.	TA'LIMDA AKT VOSITALARI HISOBLANGAN MULTIMEDIA MATERIALLARI VA EHM DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI Shermetova O'g'iljon Jabborovna	5-10
2.	O'ZBEK XALQINING ASRLAR DAVOMIDA SHAKLLANGAN BEBAHO AN'ANA VA QADRIYATLARI O'rolova Feruza	11-16
3.	ЗНАЧЕНИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА РОЛИ КАМНЯ БИРЮЗА В ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЯХ Бакдурдыева Кундуз Кувондик кизи	17-20
4.	Народные игры во время праздника Навруз Гаппарова Бахтигуль Раззаковна	21-24
5.	Праздник дыни проходящее в Хорезме Гаппарова Бахтигуль Раззаковна	25-28
6.	Shoira Shams lirikasida lafziy- ma'naviy san'atlarning mushtarak qo'llanilishi Bobonazarova Gulzoda	29-32
7.	ANALYSIS OF THE RESULTS OF FULL-FACTOR EXPERIMENTS OF THE MODERNIZED SEWING MACHINE WITH THE RECOMMENDED THREAD TENSIONER WITH TWO ELASTIC ELEMENTS S.DJ. Mukhamedjanova, A.Djuraev, N.M.Safarov, M.A.Mansurova, D.S.Mansuri, Sh.Ganchini	33-41
8.	“ИХВОН УС-САФО” ВАКИЛЛАРИ ҚАРАШЛАРИДА ДИН ВА ФАЛСАФА УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАСИ Собиров З.Н.	42-46
9.	Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi Qahhorova Abera Sharopovna	47-50



10.	STUDY ON THE COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF STUDENTS LEARNING KOREAN AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE (based on the curriculum of Korean as a foreign language) Saidova Mokhinur Murodovna	51-58
11.	Masofaviy va gibrid ta'lim sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlilining ta'siri Shomurodov Sherali Shuhratovich	59-63
12.	ODAM SAVDOSI QURBONI BO'LGAN INSONLARNING PSIXOLOGIK O'ZIGA HOSLIGI Raximov Muxammad Baxtiyarovich	64-68
13.	MUNDARIJA	69-70